

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/.30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

OQNAZAROV TO‘LQIN JALILOVICH

**O‘QITUVCHILARNING VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI
INFORMATSION KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Oqnazarov To'liqin Jalilovich

О'qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini
rivojlantirish..... 3

Окназаров Тулкин Жалилович

Развитие информационной компетентности преподавателей в области
виртуальных технологий 21

Oknazarov Tolkin Jalilovich

Development of information competence of teachers in the field of virtual
technologies 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/.30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

OQNAZAROV TO‘LQIN JALILOVICH

**O‘QITUVCHILARNING VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI
INFORMATSION KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi.

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PHD/Ped2814 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb sahifasida (<https://www.samdu.uz/uz/pages/ixtisoslashtirilgan-kengashlar> va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibraimov Xolboy Ibragimovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich

pedagogika fanlari doktori, dotsent

Mustafoev Shomurod Normuminovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «____» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366)239-12-29, faks: (0366) 239-13-87, ye-mail: kengash-pf@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil "_____" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

E.A.Abdumannotov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

N.Sh.Shodiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy bosqichi turli ko'rinishlarda olib borilmoqda. Asosiy yo'nalishi o'qituvchilar tayyorlash hisoblangan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, virtual texnologiyalardan foydalanishni mukammallashtirish, doimiy ravishda o'z kasbiy darajasini oshirib borish, zamonaviy axborotlashgan jamiyatning rivojlanish tendensiyalariga moslikni ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda masofaviy ta'lim sharoitida o'qituvchilarning virtual texnologiyalarga oid kompetentligini rivojlantirish, malaka oshirishning bilvosita shakllarini joriy etish, uning kasbiy faoliyat bilan bog'liq kontentini takomillashtirish, samarali virtual ta'lim mexanizmlarini ishlab chiqishga oid amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda pedagog xodimlarning dunyo Internet axborot tarmog'i, elektron ta'lim resurslari hamda masofadan o'qitish metodlari asosida axborot kommunikatsion va innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni o'zlashtirishi, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari dolzarbdir.

Mamlakatimizda milliy ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida «pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimini «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida takomillashtirib borish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish» kabi vazifalar belgilangan¹. Bu borada, virtual texnologiyalari sohasidagi informatsion kompetentlikning tavsifiy mohiyatini aniqlashtirish, uning komponentlari mazmuni va shakllanish darajalarini tavsiflash, masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarda virtual texnologiyalari sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son «Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son Farmoni. 06/20/6108/1483

chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pedagoglarning ma'naviy-madaniy hamda kasbiy tayyorgarligi hamda ularning kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar Abdinazarova Z.X., Abduqodirov A.A., Begimqulov U.Sh., Hamidov J.A., Himmataliyev D.O., Jamoldinova O.R., Sharipov Sh.S. xalq ta'limi xodimlarini malaka oshirish tizimida ta'lim sifati boshqaruvini takomillashtirish Askarov A.D., Boymurodova G.T., Ibragimov A.A., Ibraimov X.I., Inoyatov U.I. lar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda kadrlarni kasbiy tayyorgarligini turli aspektlarda rivojlantirishga doir tadqiqotlar Baxodirova U.B., Berdibayev M.S., Djurayev R.H., Jo'raqulova N.X., Ibragimova G.N., Muslimov N.A., Olimov Q.T., Otabayev I.A., Qo'ysinov O.A., Turdiyev Sh.R., Urakov Sh.R., Fayzullayev R.X. va boshqa olimlarning ishlarida yoritilgan.

Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, masofaviy ta'lim texnologiyalari va elektron ta'lim texnologiyalari muammolari bo'yicha MDHda Andreyev A.A, Anisimov M.V., Axayan A.A., Bovtenko M.A., Buldigina L.M., Lavina T.A., Nass O.V., Polat E.S., Fyodorova G.A., Perepyolkina O.A., Xutorskoy A.V. larning tadqiqot ishlarida, mamlakatimizda olimlardan Abduqodirov A.A., Askarov A.D., Baxodirova U.B., Begimqulov U.Sh., Inoyatov U.I., Mamatov D.N., Maxkamova M.U., Panjiyev S.A., Qurbonov Sh.E., Suropov B.M., Turaqulov O.X. va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida kuzatish mumkin.

Xorijlik tadqiqotchilardan R.M.Bernard, R.Schmid, R.M.Tamim, F.K.Abrami, K.A.Wade, M.A.Surkes, R.D.Owsten, G.Alan, Chute & Kate M.Gulliver mazkur sohada izlanishlar olib borganlar.

Mazkur ishlarda malaka oshirish muassasalarida axborot texnologiyalarini o'qitish metodikasi va metodologiyasini yangilash va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini kasbiy pedagogik faoliyatida foydalanishga tayyorlash, zamonaviy o'qituvchilarni shakllantirish mazmuni tadqiq qilingan va uning samaradorligini oshirishda o'ziga xos usullardan foydalanish nazarda tutilgan.

O'rganilgan nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, malaka oshirish muassasalari faoliyatini o'rganish va tahlil etish, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish va takomillashtirish muammosining dolzarbligi, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini malaka oshirish muassasalarining o'quv jarayoniga virtual ta'lim tizimini joriy etishning respublikamiz sharoitida yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi tadqiqot zarurligini belgiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № SPed-01 raqamli "Uzluksiz ta'limni rivojlantirish-ning zamonaviy strategiyalari" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'qituvchilar malakasini oshirishni masofaviy tashkil etishda virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirishga oid amaliy-didaktik usullarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

virtual texnologiyalari sohasidagi informatsion kompetentlikning tavsifiy mohiyatini aniqlashtirish;

o'qituvchilar virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligining komponentlari mazmunini va ularning shakllanish darajalarini tavsiflash;

o'qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirishda masofaviy ta'lim imkoniyatlarini ochib berish;

masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarda virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'qituvchilarni virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning predmeti – o'qituvchilarning masofaviy ta'lim jarayonida virtual texnologiyalari sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida muammoga doir falsafiy, psixologik-pedagogik, metodik adabiyotlarni, elektron o'quv manbalarini o'rganish va nazariy tahlili; bo'lajak o'qituvchilarni metodik tayyorlash, o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalarining tahlili; so'rovnoma va test; sinov; suhbat; kuzatish; elektron ta'lim kontentini ekspertizadan o'tkazish; matematik-statistik tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirishda masofaviy ta'lim imkoniyatlari ta'lim resurslari hamda o'quv materiallarini taqdim etishning tarmoq hamkorligiga asoslangan shakllariga ko'ra didaktik shartlarga yo'naltirilgan tayanch kompetensiyalari matrisasini (mazmun komponentlari, tashxislanadigan ko'rsatkichlar) tuzish asosida aniqlashtirilgan;

virtual-integratsiyalashgan ta'lim muhitida o'qituvchilar kasbiy malakasini oshirishning didaktik modeli ta'limni faol axborotlashtirish sharoitida pedagogik faoliyatga oid kompetensiyalarning keng spektrga ega ekanligi sababli o'qituvchilarning samarali kasbiy rivojlanishiga imkon beruvchi shakl, usul va vositalardan iborat metodik tizimning tashkiliy komponentlarini (texnologik ta'minot, o'quv faoliyati shakllari, kontent mazmuni, web-portfolioni kuzatish) belgilash asosida ishlab chiqilgan;

xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazining integratsiyalashgan axborot ta'lim muhiti tuzilmasi virtual metodik birlashma

ishining kasbiy muhokama, maslahat, jamoaviy yordamlar, birgalikda ta'lim faoliyati, qo'llab-quvvatlash, ta'lim monitoringi kabi asosiy funksiyalari asosida takomillashtirilgan;

integratsiya sharoitida metodik tayyorgarlikni modernizatsiyalash yo'nalishlari mazmuni tajribalarini o'rganish, o'zlashtirish, tashkil etish, natijalarni taqdim etish, pedagogik yechim va tahlil komponentlariga ko'ra ta'limiy maqsad, metodik tayyorgarlik bosqichlari, axborot almashinuv jarayoni ishtirokchilari, foydalaniladigan texnologiyalar va axborot resurslari, axborot almashinuv shakllariga ko'ra bosqichlashtirish asosida didaktik tizimi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'qituvchilarning masofaviy ta'lim orqali malakasini oshirishda ma'lumotlarini elektron shaklda almashish, axborot ta'lim resurslarini tarmoqda joylashtirgan holda ularga taqdim etish, foydalanishni tashkil etishning pedagogik yo'llari ishlab chiqilgan;

virtual ta'lim muhitida o'qituvchilar kasbiy malakasini oshirishning didaktik modeli ishlab chiqilgan;

malaka oshirish jarayonida umumta'lim maktablari o'qituvchilarini virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirish maqsadida elektron qo'llanma <http://aktkom.uz/> manziliga joylashtirilib, videodarslar bilan tanishish imkoniyati yaratildi;

o'qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantiruvchi elektron qo'llanma yaratilgan, ulardan hozirgi vaqtda amaliyotda bevosita foydalanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi psixologik-pedagogik va metodik fanlar tahlil etilganligi; tadqiqot metodikasining majmuaviy tavsiflanganligi; o'rganish maqsadlari, vazifalari va shartlariga mos keladigan tajriba-sinov ishlarining mantiqan asoslanganligi; qayd etuvchi va shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari natijalarining obyektivligi; tajriba-sinov ishlari natijasida olingan ma'lumotlarning namunaviy o'lchamlari va ahamiyatli yutuqlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u kasbiy pedagogik ta'lim nazariyasi va didaktikasiga ma'lum bir ma'noda hissa qo'shadi. U o'qituvchining virtual texnologiyalari sohasidagi informatsion kompetentligining integratsion-kasbiy-shaxsiy karakteristikasi sifatida mohiyatiga hamda uning tayyorligi, kasbiy faoliyatida AKTdan mustaqil foydalanish qobiliyatiga aniqlik kiritgan; o'qituvchini virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligining komponentlari va ularning shakllanish darajasi aniqlangan hamda pedagogika sohasiga doir nazariy tahlillar davomida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, "O'qituvchilar faoliyatida virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini shakllantirish" modulli masofaviy o'qitish kursi ishlab chiqilib, sinovdan o'tkazilgan. Pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish va AKT kompetentligini baholash uchun tashxislash materiallari tayyorlandi. Taklif etilayotgan didaktik-metodik yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarining pedagogika ixtisosliklari talabalarini tayyorlashda ham qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, "O'qituvchilar faoliyatida virtual

texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini shakllantirish” modulli masofaviy o‘qitish kursidan ta’lim sifatini oshirish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘qituvchilar faoliyatida virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini shakllantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

o‘qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirishda masofaviy ta’lim imkoniyatlari ta’lim resurslari hamda o‘quv materiallarini taqdim etishning tarmoq hamkorligiga asoslangan shakllariga ko‘ra didaktik shartlarga yo‘naltirilgan tayanch kompetensiyalari matrisasini (mazmun komponentlari, tashxislanadigan ko‘rsatgichlar) tuzish asosida kengaytirilgan takliflardan O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti, Qoraqalpog‘iston filialining I-XT-0-19929-“Ta’lim qoraqalpoq tilida o‘qitiladigan maktablarning 8-9 sinflari uchun aniq fanlar bo‘yicha elektron darslik va metodik tavsiya ilovasini yaratish hamda o‘quv jarayoniga joriy etish (matematika, informatika)” mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 7-apreldagi 02-07-962/04-son ma’lumotnomasi). Natijada virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentlikning tavsifiy mohiyatini aniqlashtirish imkoni yaratilgan;

virtual-integratsiyalashgan ta’lim muhitida o‘qituvchilar kasbiy malakasini oshirishning didaktik modeli ta’limni faol axborotlashtirish sharoitida pedagogik faoliyatga oid kompetensiyalarning keng spektrga ega ekanligi sababli o‘qituvchilarning samarali kasbiy rivojlanishiga imkon beruvchi shakl, usul va vositalardan iborat metodik tizimning tashkiliy komponentlarini (texnologik ta’minot, o‘quv faoliyati shakllari, kontent mazmuni, web-portfolioni kuzatish) belgilash asosida takomillashtirilgan takliflar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 7-apreldagi 02-07-962/04-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘qituvchilarda virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligining komponentlarimazmunini va ularning shakllanish darajalarini tavsiflashga erishilgan;

xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazining integratsiyalashgan axborot ta’lim muhiti tuzilmasi virtual metodik birlashma ishining asosiy funksiyalarini (kasbiy muhokama, maslahat, jamoaviy yordamlar, birgalikda ta’lim faoliyati, qo‘llab-quvvatlash, ta’lim monitoringi) tasniflash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti, Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan I-XT-0-19929-“Ta’lim qoraqalpoq tilida o‘qitiladigan maktablarning 8-9 sinflari uchun aniq fanlar bo‘yicha elektron darslik va metodik tavsiya ilovasini yaratish hamda o‘quv jarayoniga joriy etish (matematika, informatika)” mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 7 apreldagi 02-07-962/04-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘qituvchilarda

virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirishda masofaviy ta'lim imkoniyatlarini ochib berishga erishilgan;

integratsiya sharoitida metodik tayyorgarlikni modernizatsiyalash yo'nalishlari mazmuni tajribalarini o'rganish, o'zlashtirish, tashkil etish, natijalarini taqdim etish, pedagogik yechim va tahlil komponentlariga ko'ra ta'limiy maqsad, metodik tayyorgarlik bosqichlari, axborot almashinuv jarayoni ishtirokchilari, foydalaniladigan texnologiyalar va axborot resurslari, axborot almashinuv shakllariga ko'ra bosqichlashtirish asosida ochib berishga oid tavsiyalar Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan OT-Atex-2018-519 raqamli "Kompyuter imitatsion modellar asosidagi virtual resurslarni web-ilovasini dasturiy ta'minotini yaratish" nomli amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 7-apreldagi 02-07-962/04-son ma'lumotnomasi). Natijada masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarda virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga sharoit yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish e'lon qilingan bo'lib, jumladan, OAK tasarrufidagi jurnallarda 5 ta, shundan 3 tasi respublika jurnallarida, 2 tasi maqola xorijiy jurnalda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, 121 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va tuzilmasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"O'qituvchilarning virtual texnologiyalari sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida o'qituvchining virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligi tushunchasining tavsifiy aspektlari, masofaviy ta'lim imkoniyatlari, didaktik shartlari qarab chiqilgan. Axborot kommunikatsion texnologiyalarini tezkorlik bilan rivojlanishi va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatining o'sishi ta'lim tizimiga yondashuvni yaxlit tarzda qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Bugungi kunda eng dolzarb vazifa yangi shart-sharoitda ta'limda didaktik nazariyani tatbiq etilishini rivojlantirish hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ta'limda kompetentli yondashuv konsepsiyasini amalga oshirish asosiy ahamiyat kasb etmoqda. U ta'lim va axborotlashgan jamiyat hamda global ommaviy kommunikatsiya talablariga mos ravishda ta'lim maqsadlarini va ta'lim mazmunini o'zgartirish uchun asos bo'ladi. Mazkur yondashuv an'anaviy ta'lim maqsad va mazmuni haqidagi tasavvurlarni jiddiy ravishda o'zgartiradi.

Ko'pgina tadqiqotchilar fikrlariga ko'ra kompetentli yondashuvning asosiy g'oyasi – rasmiy ta'lim tizimida o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalar bilan chegaralanmaslik kerak. Ta'lim tizimida samaradorlikka erishish uchun mazkur bilimlar inson tomonidan rasmiy ta'lim tizimidan tashqarida keng spektrdagi o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'lagan bo'lishi lozim.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari “bilim, ko'nikma, malaka” tushunchalariga nisbatan keng bo'lib, ular o'zida shaxsga yo'naltirilganlikni (motivatsiya, qadriyatlarga mo'ljalni olish va shu kabilarni), stereotiplarni bartaraf etishni, muammolarni sezish, qayishqoq tafakkurga, ma'lum bir harakterga (mustaqil, mehnatsevar, maqsad sari intilish, irodaviy sifatlar va shu kabilarga) ega bo'lishni namoyon etadi.

Hozirgi vaqtda kompetentlilik va kompetensiyalarga tegishli atamalar shakllanib bo'lgani yo'q, ko'pchilik tadqiqotchilar kompetensiyalarning muhim tavsiflarini, aynan ularning aniq faoliyatdagi aniq holatlarda namoyon bo'lishini ajratib ko'rsatishadi. Kompetensiya uni aniq amalga oshirish shartlaridan ayri holda mavjud bo'lishi mumkin emas. U bilim va ko'nikmalarni bir vaqtda safarbar qilish hamda aniq faoliyat sharoitida muomala usullari bilan uzviy bog'langandir.

Tadqiqotimizning maqsadi o'qituvchilarning axborot kommunikatsion texnologiyalari sohasida kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlarini nazariy va tajriba-sinov orqali asoslanishini aniqlash bo'lsa, u holda tadqiqot ishimizning eng muhim vazifalaridan biri “virtual texnologiyalari sohasidagi o'qituvchining kompetentligi” tushunchasiga aniqlik kiritishdan iborat bo'ldi.

O'qituvchining “virtual texnologiyalar sohasidagi kompetentligi”ni quyidagicha aniqlashtirdik: nazariy bilimlar, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda dasturiy vositalardan foydalanish orqali kasbiy-pedagogik faoliyatda amaliy usullar asosida ta'limiy muhit muammolarini hal eta olish qobiliyati – o'qituvchining virtual texnologiyalar sohasidagi kompetentligi deyiladi. Mazkur ta'rif o'qituvchi faoliyatida zaruriy bilim va kasbiy-pedagogik qobiliyatlarni o'zida namoyon etadi. Ana shu tarzda aniqlanadigan, o'qituvchining virtual texnologiyalaridan kompetentligi, tizimli yondashuvga mos ravishda axborotlar oqimi bilan ishlashga mo'ljallangan komponentlar orqali ifodalanadi.

Pedagogik ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri – o'qituvchilarni pedagogika faoliyatida virtual texnologiyalardan foydalanish sohasida uzluksiz tayyorlash tizimini rivojlantirishdan iboratdir. Virtual texnologiyalar rivojlanishining jadal sur'atlari o'qituvchining virtual texnologiyalaridan xabardorligini yaxshilash uchun yangi yondashuvlarni izlashni talab qiladi. Shunday qilib, pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish dasturida o'qituvchilarning turli toifalari uchun yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida malaka oshirish dasturlarini yaratish zarurligiga e'tibor qaratiladi. Virtual texnologiyalar sohasida o'qituvchilarning malakasini oshirish nafaqat kompyuter bilan ishlashga, balki umumiy o'rta ta'lim maktablari sharoitida fanlardan dars berishda yangi ish uslublarini o'zlashtirishga o'qitishni ham o'z ichiga oladi.

Malaka oshirish kurslari o'rtasidagi o'qituvchilarni doimiy ravishda metodik qo'llab-quvvatlash va maslahatlar berishning amalda yo'qligi ham virtual

texnologiyalari sohasida o'qituvchilar malakasini oshirish samaradorligini pasaytiradigan jiddiy muammo hisoblanadi.

Masofaviy ta'lim, birinchi navbatda, ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarga borish imkoniga ega bo'lmagan, ammo amaliyot, motivatsiyasi bor va malaka oshirishga muhtoj bo'lgan katta yoshlilarga qaratilgan.

Masofaviy o'qitish maxsus ta'lim usuli bo'lib, ta'limning muayyan metod, vosita va shakllaridan foydalanish bilan tavsiflanadi, shuning uchun masofaviy ta'limni zamonaviy ta'lim tizimida qo'llashning muhim sharti o'qituvchilarning axborot va virtual texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan bo'lishligidir.

Malaka oshirishning to'liq shakllaridan farqli o'laroq, masofaviy ta'lim qo'shimcha pedagogik ta'lim muassasalari mutaxassislarining ham alohida tayyorgarligini talab qiladi. O'qituvchining virtual texnologiyalar sohasidagi bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish muammolarini nazariy o'rganish natijalari asosida, tadqiqotimiz doirasida virtual texnologiyalar sohasidagi bilimlarini oshirishga yordam beradigan bir necha pedagogik shartlarni nazariy asoslashni maqsad qilib qo'ydik.

Hozirgi vaqtda pedagogika nazariyasida o'quv jarayoni uning tarkibiy elementlari, obyektiv va subyektiv omillari ta'sir qiladigan murakkab tizim sifatida qaraladi. Har qanday didaktik tizimning samaradorlik omillarini to'rtta shartli guruhga bo'lish mumkin: 1. Tahsil oluvchilarning shaxsiy fazilatlari bilan belgilanadigan shartlar; 2. O'qituvchining shaxsiy fazilatlari bilan belgilanadigan shartlar; 3. O'qituvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro muloqoti hamda aloqalari bilan bog'liq shartlar; 4. Pedagogik jarayonni tashkil etishning moddiy-texnik shartlari.

Malaka oshirish ta'lim tizimiga qo'yilishi mumkin bo'lgan, talablarga muvofiq, virtual texnologiyalar sohasidagi o'qituvchilar malakasini oshirish mazmunini modulli tarkiblashtirishni taklif qilamiz. Modulli ta'lim masofaviy o'qitishning zarur bo'lagidir, chunki o'qitish mazmuni, metodlari, mustaqillik darajasi, tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyati sur'ati bo'yicha individuallashtirilgan ta'lim dasturi sifatida gavdalanuvchi modul o'qituvchilarning kurslarga tayyorgarlik samaradorligining oshishiga imkon beradi. Masofaviy o'qitishda o'qituvchi modul bilan ishlash jarayonida o'quv-bilish faoliyatining aniq maqsadlariga mustaqil erishadi. Virtual texnologiyalar sohasida o'qituvchilar malakasini oshirish mazmuni ularning nazariy, metodik va amaliy tayyorgarligi jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun modulli tarkibda uchta muhim blok ajratilgan: ilmiy-nazariy, metodik va amaliy faoliyat. Masofadan o'qitish sharoitida modullarda ifodalangan va o'qituvchilarning nazariy, metodik va amaliy tayyorgarligi jarayonida amalga oshirilgan tahsil mazmuni virtual texnologiyalarni qo'llash asosida kasbiy faoliyatda o'qituvchilar kasbiy mahoratini oshirishga ko'maklashadi.

Mazkur bobda o'qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini amalga oshiruvchi didaktik shartlar ustida ham atroflicha fikr yuritilgan. Xususan, birinchi didaktik shart – o'qituvchi tomonidan o'tilayotgan predmetning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kurs tayyorgarligi mazmuni modulli tuzilmasini yaratish. Ikkinchi didaktik shart –

malaka oshirish ta'lim muassasalari o'qituvchilarini masofaviy ta'lim berish sharoitida informatsion kompetentligini rivojlantirish uchun o'qituvchining virtual texnologiyalar sohasidagi bilimlarini oshirishga maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish. Uchinchi didaktik shart – o'qituvchining AKT sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirish jarayonida loyihalash texnologiyalaridan foydalanish. To'rtinchi didaktik shart – masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning informatsion kompetentligini rivojlantirishda tarmoq hamkorligini asosida o'qituvchilar malakasini uzluksiz tarzda oshirib borishni ta'minlash.

Umuman olganda, o'qituvchilarning informatsion kompetentligini rivojlantirish – virtual texnologiyalardan foydalanish sohasida pedagoglarni muntazam metodik qo'llab-quvvatlash tizimini, shu jumladan, o'qituvchilarning innovatsion faoliyati va tahsil oluvchilarning o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlash tarmoqli infratuzilmasini o'zida ifoda etadi.


O'qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirish, pedagoglar malakasini uzluksiz oshirish muammosini hal etish masofaviy ta'limdan foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lib, u ishlab chiqarishdan uzilmagan holda maksimal darajada ko'p pedagog xodimlarni virtual texnologiyalar sohasida malaka oshirishga jalb qilish, malaka oshirish kurslarini o'tash vaqtida o'qituvchilarni o'rin almashtirish muammosini hal etish, o'qituvchining kasbiy ehtiyojlar va vaqtinchalik imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning individual ta'lim olish yo'lini yaratish, masofaviy ta'lim jarayonida har bir pedagogga o'z pedagogik faoliyatida virtual texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini tushunishiga ko'maklashishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **“O'qituvchilarda virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirishning didaktik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida virtual-integratsiyalashgan ta'lim muhitida o'qituvchilar kasbiy malakasini oshirishning didaktik modeli, didaktik-texnologik shartlari va iSpring dastrining imkoniyatlari haqida alohida paragraflar ustida atroflicha to'xtalib o'tilgan.

O'qituvchilarning informatsion kompetentligini rivojlantirish uchun kasbiy malakasini oshirishning metodologik tizimini o'zaro bog'liq bo'lgan besh komponentli to'plam sifatida: maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl va ta'lim vositalari ko'rib chiqilgan. Uni amalga oshirish jarayoni bosqichlar to'plami sifatida tushunilib, ular mantiqiy to'liqlik, maqsadli sozlash, predmetning aniq mazmuni, tashkiliy-metodik ta'minot va natijalarni baholash tartiblari bilan tavsiflangan (1-rasm).

Metodik tizimning maqsad komponenti ta'limni faol axborotlashtirish sharoitida o'qituvchilarning malakasini oshirish talablarini aks ettiradigan maqsadlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

O'qituvchilarning informatsion kompetentligini rivojlantirishdagi ijodiy yutuqlari elektron axborot resurslarini ishlab chiqishni, elektron ta'lim texnologiyasi va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni, tarmoq ta'lim tashabbuslarini amalga oshirishni, web-portfolioni rasmiylashtirish va uni qo'llab-quvvatlashni qamrab oladi.



1-rasm. Virtual ta'lim muhitida o'qituvchilar kasbiy malakasini oshirishning didaktik modeli.

Masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi" integrallashgan axborot ta'lim muhiti sharoitida o'tkaziladigan majmuaviy metodik tadbirlarga faol ta'lim tarmog'idagi: telekommunikatsion loyihalar, vebinarlar, Internet-konferensiyalar, o'qituvchilar uchun tanlovlar kabi tashabbuslar kiradi.

Metodik tizimning texnologik komponenti “xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi” integrallashgan axborot ta’lim muhiti asosida o’qituvchilarning samarali kasbiy rivojlanishiga imkon beradigan shakl, metod va vositalarni o’z ichiga oladi.

O’qituvchilar informatsion kompetentligining rivojlanganlik darajasini o’rganish monitoringi ilg’or texnologiya sifatida ko’rib chiqilib, uning yordamida ta’lim natijalarini aniqlash, ularni tuzatish, baholashning ob’ektivligini oshirishi mumkin. Shunga muvofiq, dissertatsion tadqiqot ishimizning monitoring tavsifi quyidagi: baholash mezonlari “xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi” integratsiyalashgan axborot ta’lim muhiti sharoitida o’qituvchilar malakasini oshirishning sifat va miqdoriy tavsiflarini o’rganish uchun mezonlar majmuasini aniqlash imkonini beradi.

O’qituvchilarda virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirish mezonlar majmuasini aniqlash imkonini; rejalashtirish, tashhislash va bashoratlash asosida o’qituvchilarning malakasini oshirishni rivojlantirishga qaratilgan mazmun, shakl, metod va vositalarni asoslashni va tanlashni nazarda tutadi; boshqaruv, monitoring davomida olingan ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni o’z ichiga oladigan funksiyalarga asoslanadi.

Informatsion kompetentlikni rivojlantirishdagi didaktik texnologik shartlar – pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi integratsiyalashgan axborot ta’lim muhiti barcha sub’ektlari faoliyatini maqsadli hamda tizimli ravishda muvofiqlashtirishni ta’minlaydigan, o’qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan o’zaro bog’liq didaktik, texnologik, axborot tadbirlarining majmuidir.

Tinglovchilarni metodik nuqtai nazardan tayyorlash tarkibi va mazmunini rivojlantirish uchun didaktik-texnologik shartlarni aniqlashda: elektron va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan zamonaviy ta’lim muammolarini kasbiy nuqtai nazardan hal qilishga qodir mutaxassislarga bo’lgan ehtiyojlar; ta’limni axborotlashtirish sharoitida o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy-shaxsiy rivojlanishining yangi sifat ko’rsatkichlari; o’qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti bilan umumta’lim muassasalari ijtimoiy hamkorligi asos sifatida yetakchi o’rinni egallashi hisobga olindi.

O’qituvchilarni virtual texnologiyalari sohasidagi informatsion kompetentligini rivojlantirishda iSPRING dasturining imkoniyatlari ustida to’xtalib, undan foydalanish metodikasi ochib berilgan. Mazkur mavzuni ochib berishda o’qitishning to’rt pog’onaligi metodidan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishini tashkil etish va o’tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida o’qituvchilarning informatsion kompetentligini masofaviy shaklda rivojlantirishning tajriba-sinov ishlarini tashkil etish yo’llari, tajriba-sinov natijalari va tahlili qarab chiqilgan.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, Navoiy viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, Jizzax viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish hududiy markazlari o'quv jarayoniga 2016-2017, 2017-2018 va 2018-2019 o'quv yillari davomida olib borildi. Tajriba va nazorat guruhlarida jami 734 nafar respondent qatnashdi.

Tajriba-sinovni tashkil etishda tadqiqot muammosi bo'yicha ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va o'qituvchilarni kasbiy malakasini oshirish ta'lim tizimida masofaviy o'qitishdan foydalanishning amaliy tajribasini o'rganish, masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning AKT kompetentligini rivojlantirishning nazariy shartlarini aniqlashga, shuningdek, tipik xato va nuqsonlarni tavsiflashga olib keldi.

Har bir komponent: past daraja – pedagogik faoliyatda AKTdan foydalanishni o'rgatishda, shuningdek, o'z kasbiy faoliyatida AKTdan foydalanishda motivning yo'qligi yoki yaxshi ifodalanmaganligi; o'rta daraja – o'qituvchi pedagogik faoliyatda AKTdan foydalanishni o'rgatishdan, o'quv jarayoniga AKTni joriy etishdan manfaatdor, ammo o'z kasbiy faoliyatida AKTdan foydalanish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni mustaqil ravishda izlashga tayyor emas; yuqori daraja – o'qituvchi pedagogik faoliyatda AKTdan foydalanishni o'rgatishdan manfaatdor, AKT sohasidagi bilim va tajribasini talabalar va hamkasblariga berishga tayyor, AKTni o'quv jarayoniga joriy etishda va AKT rivojlanishining hozirgi darajasiga mos keladigan pedagogik texnologiyalarni topishda doimiy qiziqishga egalik bilan baholangan. O'qituvchilarning informatsion kompetentligi komponentlarini baholash uchun so'rovnomalar, testlar va o'qituvchilar faoliyatlari tahlili o'tkazilgan.

Tajriba-sinovning qayd etuvchi bosqichida olingan ma'lumotlar masofaviy shaklda o'qituvchilarning informatsion kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov natijalarini masofadan tahlil qilishni kiritish kerak degan xulosaga kelishga imkon berdi. Tajriba-sinovning shakllantiruvchi bosqichini o'tkazish asosiy muammoni aniqlashga imkon berib, uni hal qilishda yechim muhim ahamiyatga egadir.

Tajriba-sinovning bosqichlaridan olingan ma'lumotlar masofaviy shaklda o'qituvchilarning informatsion kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov natijalarini masofadan tahlil qilishni kiritish kerak, degan xulosaga kelishimizga imkon berdi.

Malaka oshirish ta'lim tizimida o'qituvchining AKT kompetentligini shakllantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari malaka oshirish kurslarida qatnashgan tinglovchilar guruhlar bilan olib borildi. Tajriba-sinovda 67 o'qituvchi (3 o'quv guruhi) ishtirok etdi.

